

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA DERMAZOL PLYUS

Preparatning savdo nomi: Dermazol Plyus

Ta'sir etuvchi moddalar (XPN): ketokonazol va rux piritioni.

Dori shakli: shampun

Tarkibi:

Har bir ml shampun quyidagilarni saqlaydi:

faol moddalar: 20 mg ketokonazol; 10 mg rux piritioniga ekvivalent bo'lgan rux piritionining suvdagi 48% li suspenziyasi.

yordamchi moddalar: natriy lauril efir sul'fati, kokodietanolamid, propilenglikol, dinatriy monolauril efir sulfosuksinati, makrogol 120 metilglyukoza dioleati, konsentratsiyalangan vodorod xloridi kislotasi, natriy xloridi, natriy gidroksid pelleti, butillangan gidroksitoluol (E321), bo'yoq Ponso 4R Supra (E124), imidomochevina, AL 012514 aromatizatori, aloe vera kukuni va tozalangan suv.

Ta'rifi: o'ziga xos hidga ega pushti rangli qovushqoq suyuqlik.

Farmakoterapevtik guruhi: Dermatologiyada qo'llaniladigan mikroblarga qarshi preparatlar. Mahalliy qo'llash uchun zamburug'larga qarshi preparatlar. Imidazol va triazol hosilalari.

ATX kodi: D01AC.

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Shampunning farmakologik xususiyatlari uning tarkibiga kiruvchi faol substansiyalar: ketokonazol va rux piritioni xarakteristikalariga bog'liq.

Ketokonazol imidazol dioksalanning sintetik hosilasi bo'lib, dermatofitlarga (*Epidermophyton spp.*, *Microsporum spp.*, *Trichophyton spp.*), turli shtammlardagi achitqilar va achitqisimon zamburug'larga (*Candida spp.*, *Malassezia furfur* – *Pitysporum ovale*) nisbatan zamburug'larga qarshi va fungistatik faollikni ta'minlaydi.

Sirtga qo'llanilganida rux piritioni suspenziyasi mikroblarga qarshi va zamburug'larga qarshi faollikni namoyon qiladi; streptokokklar, stafilokokklar, zamburug'lar va kasallik keltirib chiqaruvchi organizmlarga qarshi samaralidir. Rux piritioni preparatning seboreyaga qarshi ta'sirini belgilaydi va qazg'oq bilan kurashadi. Ketokonazol saqlovchi shampun odatda qazg'oq, seboreyali dermatit va rangbarang temiratki bilan kechadigan kepaklanish va qichishishni kamaytiradi.

Aloe vera kukuni sochlarga namlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, vitaminlar va mikroelementlar bilan boyishiga yordam beradi.

Farmakokinetikasi

Shampun farmakokinetikasiga doir maxsus tadqiqotlar o'tkazilmagan bo'lib, biroq tashqi qo'llanilganida ketokonazol va rux piritioni umumiy qon aylanishi tizimiga deyarli o'tmaydi va muvofiq ravishda tizimli ta'sirga ega emas.

Qo'llanilishi

- Qazg'oq;
- seboreyali dermatit;
- bosh terisida rangbarang mahalliy temiratki kabi kepaklanish va qichishish bilan kechuvchi bosh terisi zamburug'li kasalliklarini davolash va oldini olishda qo'llaniladi.

Qo'llash usuli va dozalari

Ishlatilishidan oldin yaxshilab aralashtirish lozim.

Shampunni nam sochlarga va bosh terisiga 3-5 minutga surting, so'ngra suv bilan yuvib tashlang.

Kattalar uchun tavsiya etiladigan qo'llash sxemasi:

Ko'rsatma	Davolash	Profilaktika qilish
Qazg'oq	2-4 hafta davomida haftada 2 marta;	Haftada 1 marta yoki 2 haftada 1 marta
Seboreyali dermatit		
Rangbarang temiratki	5 kun davomida har kuni	Yozgi davrdan oldin 3 kun davomida har kuni (bir martalik davolash kursi)

Nojo'ya ta'sirlari

Teri va teri osti kletchatkalari tomonidan buzilishlar: terini qizarishi, achishishi, qichishish, akne, kontakt dermatit, terini ta'sirlanishi, toshmalar, surtish joyida pustulyoz toshma, eshakemi, kseroz, terini yuqori darajada kepaklanishi, diskomfort hissi, o'ta yuqori sezuvchanlik, teri qoplamasini o'zgarishi.

Teri hosilalari tomonidan buzilishlar: soch strukturasini o'zgarishi, sochning o'ta quruqligi yoki yog'liligi, soch to'kilishi (alopetsiya), soch rangini o'zgarishi (odatda sochlari kimyoviy shikastlangan yoki oqargan patsientlarda), tirnoqlar rangini yo'qolishi.

Tabiatan jingalak bo'lgan sochlarni to'g'rilanishi holatlari uchragan.

Nerv tizimi tomonidan buzilishlar: ta'mni buzilishi (disgevziya), paresteziya, o'ta yuqori sezuvchanlik.

Immun tizimi tomonidan buzilishlar: o'ta yuqori sezuvchanlik reaksiyalari, shu jumladan anafilaktoid reaksiyalar, angioedema.

Ko'rish a'zolari tomonidan buzilishlar: ko'z shilliq qavatlarini achishishi, qovoqlarni shishi, haddan tashqari ko'p ko'z yoshi ajralishi.

Infeksiyalar va invazyalar: follikulit.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Ketokonazol, rux piritioni yoki preparatning har qanday boshqa komponentlariga o'ta yuqori sezuvchanlikda qo'llash mumkin emas.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Dermazol Plyus preparati sirtga qo'llash uchun glyukokortikosteroidlar bilan uzoq vaqt davolangan patsientlarga buyurilganida, 2-3 hafta davomida qo'llashni asta-sekin to'xtatib borgan holda (preparat qo'llanilishini bekor qilish sindromi yuzaga kelishini oldini olish uchun) davolashni davom ettirish mumkin.

Sezilarli tizimli so'rilishi kamligini e'tiborga olgan holda, boshqa tibbiy preparatlar bilan o'zaro ta'siri ehtimoli kam.

Glyukokortikosteroidlarni saqlaydigan dermatologik preparatlar bilan bir vaqtda qo'llashni tavsiya etilmaydi.

Maxsus ko'rsatmalar

Preparat faqat sirtga qo'llash uchun mo'ljallangan.

Shampundan foydalanilganda uni ko'zlarga va ko'zlarning shilliq qavatlariga tushishidan ehtiyot bo'ling.

Ko'zlarga tushganida suv bilan yaxshilab yuvish lozim.

Seboreyali dermatit va qazg'oq ko'pincha sochlarni yuqori darajada yo'qotilishi bilan kechadi, u ayrim hollarda shampundan foydalanishning boshlanishida bir muncha muddat davom etishi mumkin.

Preparat butillangan gidroksitoluol (E321) saqlaydi, u mahalliy teri reaksiyalarini (masalan, kontakt dermatitni) yoki ko'zlar va shilliq qavatlarining achishishini keltirib chiqarishi mumkin.

Homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanilishi

Homiladorlik va laktatsiya davrida faqat ona holatining kutiladigan yaxshilanishi homila/bola uchun potensial xavfdan yuqori bo'lganidagina ushbu preparatdan foydalanish mumkin.

Bolalar

Preparatni bolalarda qo'llash tajribasi yo'q.

Transport vositasini boshqarish va boshqa mexanizmlardan foydalanish qobiliyatiga ta'siri

Dermazol Plyus shampun avtomobilni boshqarish va boshqa mexanizmlar bilan ishlash qobiliyatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Dozani oshirib yuborilishi

Ushbu shampun faqat sirtga qo'llashga mo'ljallanganligi va ketokonazol umumiy qon aylanishi tizimiga deyarli o'tmasligi tufayli, muvofiq ravishda, dozani oshirib yuborilishi simptomlarining rivojlanishi ehtimoli kam. Shampun tasodifan yutib yuborilganda, tutib turuvchi va klinik choralardan foydalaning. Aspiratsiyani oldini olish uchun qusishni keltirib chiqarmang va me'dani yuvishni amalga oshirmang.

Chiqarilish shakli

60 ml yoki 120 ml flakonlar. 50 ml yoki 100 ml dan shampun yuqori zichlikka ega polietilendan tayyorlangan «yoqali» yoki «yoqasiz», qaytarma ochiladigan qalpoqchali oq rangli buraladigan qopqoqli flakonlarda. Flakonning oq rangli buraladigan qopqog'i PVX-issiqda qisqaruvchi plyonkaga o'ralgan. Har bir flakon tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoiti

Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin. Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati

3 yil.

Preparat yaroqlilik muddati tugagandan so'ng qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berish tartibi

Retseptsiz.

Ishlab chiqaruvchi

Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Ishlab chiqarish manzili

SP-289(A), RIICO Industrial Area, Chopanki, Bhiwadi, Dist. Alwar (Rajasthan), Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori vositalarining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar) ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili:

“BARAKA DORI FARM” MChJ XK

100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Halqa Yo'li ko'chasi, 91-uy.

Tel.: +998 (78) 150 97 97; +998 (93) 388 87 82;

Faks: +998 (78) 1509787

E-mail: pv@kusum.uz

Web-sayt: kusum.uz